



**MUHAMMAD RAHIMXON I NING HOKIMIYAT TERASIGA
KELISHI VA AMALGA OSHIRGAN ISLOHOTLAR.**

Qurambayeva Sarvinoz Jo‘raboy qizi

Urganch Davlat Universiteti ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti

Tarixshunoslik Manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari yo‘nalishi

231-guruhning II bosqich magistranti

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada Xiva xoni Muhammad Rahimxon I davrida Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, xonlikning ijtimoiy va iqtisodiy jabhada rivojlanishiga sabab bo‘lgan omillar haqida so‘z boradi. Xonlikda dehqonchilik, hunarmandchilik, qurolsozlik, ichki va tashqi savdoning taraqqiy etishi, xonlikning turli hududlaridagi bozorlar va ularning ichki va tashqi savdoda tutgan o‘rni xususida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Muhammad Rahimxon I, Xiva xonligi, Oliy kengash, N. Muravyov, “qozon” solig‘i, hunarmandchilik korxonalari, obodonchilik, sug‘orish inshaotlari.*

**ПРИХОД К ВЛАСТИ МУХАММАДА РАХИМ-ХАНА I И
ПРОВЕДЕННЫЕ ИМ РЕФОРМЫ.**

Курамбаева Сарвиноз Джурабой кызы

Ургенчский государственный университет,

факультет социальных и экономических наук Историография

Область источниковедения и методов исторического

исследования Магистрант 2 ступени группы 231



АННОТАЦИЯ: В статье рассматриваются социально-экономические процессы в Хивинском ханстве в период правления хана Мухаммад Рахимхана I, а также факторы, обусловившие социально-экономическое развитие ханства. Приводятся сведения о развитии сельского хозяйства, ремесел, оружейного дела, внутренней и внешней торговли в ханстве, рынков в различных регионах ханства и их роли во внутренней и внешней торговле.

Ключевые слова: Мухаммад Рахимхан I, Хивинское ханство, Верховный Совет, Н. Муравьев, налог «казон», ремесленные предприятия, озеленение, ирригационные сооружения.

THE COMING TO POWER OF MUHAMMAD RAHIMKHAN I AND THE REFORMS HE IMPLEMENTED.

Kurambayeva Sarvinoz Joraboy qizi

Urgench State University, Faculty of Social and Economic Sciences

History Source Studies and Historical Research Methods

II-stage Master's student of group 231

ANNOTATION: This article discusses the socio-economic processes in the Khiva Khanate during the reign of the Khiva Khan Muhammad Rakhimkhan I, the factors that led to the development of the khanate on the social and economic front. Information is provided on the development of agriculture, crafts, weapons manufacturing, internal and external trade in the khanate, markets in different regions of the khanate and their role in internal and external trade.

Keywords: Muhammad Rakhimkhan I, Khiva Khanate, Supreme Council, N. Muravyov, "kazon" tax, craft enterprises, landscaping, irrigation structures.



KIRISH

Xiva xonligining Muhammad Rahimxon I davridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning yangi bosqichga ko'tarilishi, davlatchilik siyosatining ustuvorlik sari qadam qo'yishi, ko'plab islohotlarning amalga oshirilishi xususida so'z yuritilib, tubdagicha farazlar kun tartibig qo'yildi: Muhammad Rahimxon I davridagi murakkab tarixiy sharoitning yoritib berilishi, xonlikdagi ayirmachilik tendensiyalariga barham berilishi, ichki nizolarning bartaraf etilishi masalalarining aniq dalillarga suyanilgan holda tadqiq etilishi tarixnavislik ilmiga muayyan ulush qo'shadi.

ASOSIY QISM

1804-yilda taxtga o'tirgan Avaz inoqning o'g'li Muhammad Eltuzar (1804-1806) o'zbeklarning qo'ng'iroq urug'idan birinchi bo'lib, rasmiy ravishda xon deb e'lon qilindi. Xivadagi madrasalardan birida ta'lim olgan va harbiy ishlarga ko'proq e'tibor bergan xon Buxoro bilan munosabatlarni keskinlashtirdi. Natijada 1806-yilda amir Haydarning qo'shinlari Xorazmga yurish boshlab, Shabboz yaqinidagi jangda Xiva qo'shinlariga shikast yetkazdilar. Amudaryoning so'l qirg'og'iga o'tishga uringan Eltuzarxon kema ag'darilishi natijasida cho'kib, halok bo'ladi. Xon bu vaqtda 37 yoshda edi.¹

Buxoro amirligi bilan urushdagi mag'lubiyat Xiva xonligining harbiy-siyosiy mavqeyini pasaytirib yubordi. Ayrim amaldorlar markaziy hokimiyatni tan olmay qo'ydilar. 1806-yilda soliqlarning ko'pligidan norozi bo'lgan Beshqal'a hududidagi (Chimboy, Qipchoq, Mang'it, Xo'jayli va Qo'ng'iroq) aholi qo'zg'olon ko'tardi. O'zini xonlikdan mustaqil deb e'lon qilgan qozoq-qoraqalpoqlarning Xivaga qarab yo'lga chiqqan qo'shinlari qurolsizlantirildi. Xiroj deb nomlangan mahsulot bilan olinadigan soliq o'rniga solg'ut deb atalgan pul solig'i joriy qilinishi



aholi noroziligini biroz bo`lsa–da pasaytirish imkonini berdi. Ushbu vaziyatdan foydalangan Muhammad Rahimxon to`rt oy taxtda o`tirgan Abulg`ozi V o`rniga davlatni boshqarishni o`z qo`liga oldi.²

Munisning yozishicha, Muhammad Rahimxon I davlatni qo`lga olganidan keyin uning qarindoshi Muhammad Rizobek unga bo`ysunishdan bosh tortadi. U o`ziga tegishli odamlari bilan Qiyot qo`ng`irotidagi hovlisiga boradi. So`ngra Qipchoq qal`asini bosib olib, qal`a hokimi Ollohberdibekni o`ldiradi. U orol hokimi To`ramurod so`fidan xonga qarshi kurashda yordam so`radi. Xon Qipchoq qal`asiga avval Qutluq Murod inoqni yuboradi, keyin o`zi ham uni qamal qiladi. Muhammad Rizobekka Muhammad Niyozbek va Muhammad Niyoz otaliqlar madad beradilar. Bu kurashda u Orol hokimi To`ramuroddan ham yordam oladi. Suyunbek va O`roz Alibek Oroldan yordamga kelgandilar. Muhammad Rahimxon natijasiz Xorazmga qaytadi.³

Muhammad Rizobek Qipchoq qal`asidan so`ng, Gurlanga ham hujum qiladi va uni qamal qiladi. Bu yerda ham unga katta mulkdorlar Muhammad Niyozbek va Muhammad Niyoz otaliq yordam beradilar. Ular Buxorodan madad olgach, Qiyotni ham bosib olib Xivaga yaqinlashadilar. Muhammad Rizobek xon bilan sulh tuzish bahonasida Xivaga kirib, uni tarafdorlari bilan o`ldirmoqchi bo`ladi. Uning bu niyatidan xon xabardor bo`lib, poytaxtga kelgan Muhammad Rizobekni tarafdorlari bilan tutib olib, qatl va zindonband etadi.⁴



1808-1809 yillardan boshlab, Muhammad Rahimxon I o`z hukumatini turkmanlar, qoraqalpoq va Orol bo`yi o`zbeklari orasida mustahkamlash uchun harakat qilib, urush va muxorabalar olib bordi. Xiva navkarlari 1810-yil bahoridan kech kuzgacha Janadaryo (Yangidaryo) bo`ylaridagi qozoq va qoraqalpoq ovullariga tajovuz qilib turdilar.⁵ Natijada mahalliy amaldorlar Aydo`sbiy, Kechenekbiy, O`rinbiy yordamida Yangidaryo atrofida yashayotgan qoraqalpoqlar xonlikga bo`ysundirildi.⁶ **Muhammad Rahimxon I esa o`sha ziddiyatlarni bartaraf qilib, yagona davlatchilik siyosatini vujudga keltirish uchun kurash olib bormoqda edi. Uning taxtga o`tirishi bilan Oliy kengash tuzishi ham o`sha siyosat bilan bog`liq edi.**⁷

Muhammad Rahimxon kuchli qo`shin tuzishga va uning yordamida xonlik hududlarini kengaytirishga intildi. Muhammad Yusuf Bayoniyning guvohlik berishicha, muntazam otliq qo`shinlar 13 mingdan ziyod bo`lib, unda o`zbek, turkman va qoraqalpoqlar asosiy o`rinni egallardi. Navkarlarga harbiy xizmatlari uchun yer ajratib berilgan va ular soliqlardan ozod etilgandi.

Muhammadrahimxon I mamlakatdagi vaziyatni to`g`ri payqab, shunga yarasha ish tutdi. U dastavval yer egalarining tarqoqligiga chek qo`yish, davlat hokimiyatini markazlashtirish va mustahkamlashni o`zining asosiy vazifalaridan biri deb bildi. Muhim davlat vazifalarini amalga oshirish uchun ijtimoiy tayanch vujudga keltirish zarur edi. Shu maqsadda u o`z atrofiga ishonchli, nufuzli, ishbilarmon amaldorlar, ruhoniylar, harbiylarni to`pladi. Xiva xonligiga tobe



boʻlgan turkman, qoraqalpoq, qozoq toifalarining badavlat va nufuzli vakillarini ham oʻziga yaqinlashtirib, ularga er – mulk va yuqori lavozimlar in'om etdi. Musulmon ruhoniylarining el orasidagi obroʻ – e'tiborini hisobga olib, oʻzini yaqin tutish maqsadida sayidlarning qiziga uylandi. Ularga saroyda oʻz yonidan joy berdi, mol – mulk in'om etdi va turli soliq toʻlovlaridan ozod qildi. Muhammadrahimxon I oʻz atrofida ishonchli ijtimoiy tayanchni vujudga keltirgach davlat boshqaruv ishlarini takomillashtirishga kirishdi. Shu maqsadda u mamlakatda katta er egalari tarqoqligining tayanchi boʻlgan kentlar orqali boshqaruv tartibini bekor qildi. Davlat ma'muriy boshqaruv jihatdan hokimliklarga va machit qavmlariga boʻlindi. Ular xon tomonidan tayinlangan hokimlar va oqsoqollar orqali boshqariladigan boʻldi. Urugʻchilik tuzumi davridan meros qolgan boshqaruv lavozimlari ham bekor qilindi. Ularning oʻrniga yangi markaziy va mahalliy boshqaruv idoralari va lavozimlari taʻsis qilindi. Shulardan biri Devoni Oliy (Oliy Kengash) edi. Saroyning eng nufuzli amaldorlari kengash aʻzosi lavozimiga saylanib, uni xonning oʻzi shaxsan boshqargan. Oliy Kengash davlatning qonun chiqaruvchi, maʻmuriy va sud organi vazifasini bajargan. Mehtar, qushbegi va devonbegi lavozimlari xonlikda yuqori lavozimlardan boʻlib, ular xonning eng yaqin maslahatchilariga aylandi. Yana saroyda mamlakat iqtisodiyoti, ijtimoiy – siyosiy, harbiy mudofaa, diniy ishlar bilan shugʻullanuvchi markaziy boshqaruv idoralari ham taʻsis etildi. Ana shu lavozimlarga saroydagi eng nufuzli shaxslar boshliq etib tayinlandi. Saroy amaldorlari ichida mahalliy sartlarning⁸ mavqei ancha oshib, koʻpgina masʻul lavozimlar shular qoʻliga oʻtdi. Sart Yusuf Mehtar ogʻa saroyda bosh vazir lavozimini egalladi. Hukumat xizmatida saroy aʻyonlari va viloyat amaldorlariga xizmat lavozimlariga qarab ish haqi – maosh belgilandi. Shu bilan amaldorlarning daromad taqsimotida yoʻl qoʻyilib kelayotgan oʻzboshimchaliklarga chek qoʻyildi. Pul muomalasi va soliq



tizimida ham muayyan tartib o'rnatildi. Xiva xonligida Buxoro xonlari nomi bilan zarb etilgan mis tangalar muomalada bo'lib, savdo – sotiqda va soliq yig'ishda ancha qiyinchiliklar tug'dirayotgan edi. Muhammad Rahimxon I bularni hisobga olib, Ko'hna ark saroyi ichida pul zarb qiladigan maxsus ustaxona qurdirdi. Zarbxonada uning nomi bilan oltin va kumush tangalar zarb etilib, muomalaga chiqarildi. Bu esa xonlikda tovar-pul munosabatlarini yaxshiladi, pulning qadrini oshirdi va soliq to'lovlarini tartibga solishda muhim rol o'ynadi.

Muhammad Rahimxon I tomonidan amalga oshirgan iqtisodiy islohotlardan yana biri, bu–soliq tizimini tartibga solish bo'ldi. Avvallari Xiva xonligida fuqarolardan mahsulot hisobidan soliq undirilib, uning miqdori soliq yig'uvchilar xohishi bilan muttasil o'zgarib turgan. Yig'ilgan soliqlarning ko'p qismi mahalliy amaldorlar qo'lida qolib, davlat xazinasiga kam miqdorda daromad tushgan. Muhammadrahimxon I mahsulot to'lovi – xirojni pul solig'i (solg'ut) bilan almashtirdi. Soliq to'plash ishi markaziy hukumat qo'lga o'tdi. Xazinaga fuqarolardan tushadigan daromadlar va sarf – harajatlar maxsus daftarda qayd etilib, xonning nazorati ostida bo'ldi. Endilikda soliqning miqdori mulkdorlarga qarashli ekin maydonlarining hajmi hamda olingan hosilga qarab belgilanadigan bo'ldi. Bulardan tashqari, xonlikning chegara sarhadlarida maxsus bojxona tashkil qilindi.⁹

Yuqorida zikr etilgan chora-tadbirlarning barchasi xonlikning ziroat, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning rivojlanishiga, xon xazinasida daromadining ko'payishiga olib keldi.

Xiva hukmdori turkmanlar, qoraqalpoq va qozoqlarni o'ziga kuch bilan bo'sundirgandan keyin, o'sha xalqlar orasidagi aslzodalar bilan qanday munosabat o'rnatishni bilar edi. Shu sababli u mazkur aslzoda oqsuyaklarga



ko`plab ekin yerlarini in'om qildi va yuqori imtiyozlar berdi. Ushbu imkoniyatlar bo`ysundirilgan xalqlarni boshqaruvda alohida ahamiyatga ega bo`ldi. Muhammad Rahimxon I davrida din ahllari – xo`ja, saidlar qator imtiyozlarga ega bo`lib, mamlakatni boshqarishda faol ishtirok etishdi.

Ijarada ishlagan dehqonlar soni orta bordi. Soliqlar pul bilan olinadigan bo`lgandan so`ng ham ayrim joylarda hosilning bir qismi natural tarzda to`landi. Bu to`lov turi ushr yoki dayak deb atalar edi.

Xiva xonining asosiy va muhim daromad manbalaridan biri “qozon” solig`i edi, deb yozadi. N.N. Muravyov, ularning bu solig`i boshqa davlatlardagi jon boshiga qo`yilgan soliq turiga to`g`ri keladi. Ushbu soliq har bir oilaning ahvoliga qarab belgilangan. Shu jihatdan olganda uning mulksiz kishilarga zarari tegmaydi. Xivada boshpanasiz, o`z uyiga ega bo`lmagan yoki birovning xizmatida bo`lgan kishilarga soliq solinmaydi¹⁰. Xorazmda “qozon” atamasi ramziy bo`lib, bitta oilani anglatadi. Shu sababli bunday turdagi soliqda uy-joyiga ega bo`lgan mustaqil oila nazarda tutiladi. Oilalar birikib urug`lar, qabilalarni tashkil etgan va ularning har birida oqsoqol saylangan. O`sha oqsoqollar soliqni yig`ishga mas`ul qilib qo`yilgan. Soliqni yig`ish jarayonida muayyan darajada kambag`al oilalarga yordam berilgan va o`ziga to`q oilalar zimmasiga qo`shimcha soliqlar solingan.

Xonlikda katta ariqlardan oqqan suvlar iste`molchilarga sotilgan. Shaxsan, xonning Go`ktom kanali va uning shoxobchalaridan oqqan suvi unga ko`plab daromad keltirgan.

Xorazmning ekin maydonlari qumloq bo`lganligidan kam hosilli tuproq hisoblangan. Shu sababli, mo`l hosil olish uchun ko`plab o`g`it talab qilingan. Yerlarni hosildor qilishda daryoning bo`tana loyqa suvi asosiy o`g`it vazifasini



o`tagan. Dehqonlar dalaga go`ng, xaroba uylarning devorlarini maydalab to`kishgan. Ayni paytda, loyqa suvdan ham unumli foydalanishgan. Bu hodisa sun`iy sug`orishni yaxshi tashkil etishni taqozo qilgan. Suv solig`idan xon va amaldorlar yaxshigina daromad olganlar.

Mamlakatda bojxona tashkil etilgandan so`ng davlat xazinasiga tushadigan mablag` sezilarli darajada oshgan. Turli hududlardan kirib keladigan ko`plab molar endilikda muayyan darajada soliq to`lashga majbur edilar. Turkmanlar Eron sarhadlaridan ko`plab qul, cho`ri, ot, tuya, qoramol, savdobop tovarlar, pullarni bosqinchilik yo`li bilan qo`lga kiritib, Xiva xonligiga olib kirishar, bu ashyolarni iloji boricha yashirishga urinishar, lekin kiritgan mollarining beshdan bir qismini soliq sifatida xonga to`lashga majbur edilar.

Muhammad Rahimxonning soliqlar bilan aloqador daromadlari juda ko`p edi. Biroq xon oddiy yashashga o`rgangan kishi bo`lgan. Barcha boyliklarini yig`ib qo`yish odati bo`lmagan. O`z navbatida u daromadining bir qismini harbiy maqsadlarga sarflagan, bir qismini o`z qo`l ostidagi sodiq mansabdorlarga mukofot sifatida taqdim qilgan. Obodonchilik ishlariga sarflagan.

Hukmdor qurol-yarog` saqlashga ishtiyoqmand bo`lgan, mohir chavandoz bo`lib, bedov otlar saqlagan, ularni yetishtirishga yordam bergan. Turkman otliq qo`shinlarning saqlash va ulardan harbiy maqsadlarda foydalanish xon uchun juda qimmatga tushgan. Ular harbiy yurish oldidan ko`p miqdorda (oltin tanga) talab qilishgan.

Solg`it-kesma haqida ham o`sha fikrni aytish mumkin. Uning joriy qilinishida ayrim kamchiliklar bo`lsada, bu islohot soliq tizimini muayyan darajada tartibga soldi. Xullas “Xiva o`z atrofidagi ojiz qo`shnilaridan ancha kuchli davlatga aylandi”.



XULOSA

Muhammad Rahimxonining islohotlari xalq uchun katta yengilliklar tug'dirdi. O'sha davrdagi uchala xonlik ichida Xiva xonligi yuqoridagi islohotlarning natijasida yuksaldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Tarixchi va yetuk shoir Munis va Ogohiy Muhammad Rahimxon I davrini go'zal maqto'v va olqishlar bilan qalamga olgan. Bundan ko'rinib turibdiki, hukmdorning xalqchilligi va xalqiga bo'lgan muhabbati uni ulug'likka ko'targan. Bu anhor haligacha Qilichniyozboy arig'i nomi bilan mashhurdir. Muhammad Rahimxon I xonlik hududidagi ariqlarni (yop) har yili tozalab qazdirishda o'zi shaxsan qatnashgan. Shu yili u dastlab rabi'ul oxir oyida Xivaning, jumodi-ul avval oyida Shovot ariqlarini qazishda shaxsan o'zi ishtirok etadi. Xiva xoni Marv viloyatini o'z tasarrufiga o'tkazgandan keyin, uning sug'orish shoxobchalariga ko'proq e'tibor qaratadi.

Muhammad Rahimxon I zimmasiga mamlakat sarhadlarini mustahkamlash, kuchli davlat siyosatini shakllantirish, turli ayirmachilik, guruhbozlik, sotqinlik kabi ichki nizolarga barham berish, mamlakat mudofaa quvvatini yuksaltirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish vazifasi tushdi va u ushbu masalalarni oqilona hal qildi.

Xon mamlakatdagi urug' va qabilalarni barlashtirish, davlat ishlarini bamaslahat yurgizish maqsadida Oliy kengash ta'sis qildi. Xiva xonligining ichki ishlariga aralashish payida bo'lgan ayrim davlatlar siyosatiga qat'iy qarashlik ko'rsatdi. Natijada uning siyosati qator davlatlar tomonidan e'tirof etilib, diplomatik aloqalar o'rnatildi. Savdo-sotiq ishlari yo'lga qo'yildi. Iqtisodiy-madaniy aloqalar doirasi tobora kengayib bordi. Bu holat mamlakat iqtisodiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Xiva xonligida o'zbek, turkman, qoraqalpoq va boshqa qator xalqlar istiqomat qilganligi uchun millatlar birligini ta'minlash murakkab masalalardan



biri edi. Xon ushbu muammoni hal qilishda ham muhim qarorlar qabul qildi. Harbiy yurishlarda o'sha millatlar lashkarboshilariga tayanib, ish tutdi. Biroq, feodalizmning talab va ehtiyojlari yovuzlik va bosqinchilik kabi illatlarni amalga oshirishni taqozo qilardi. Shu sababli Muhammad Rahimxon I ham o'sha davr hukmdorlariga xos tamoyilda faoliyat yuritdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. — Тошкент, 1960. – Б. 8.

2. Ёлдошев М.Й. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Б. 86 ва кейинчилари.

3. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. – Б. 73-74.

4. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-икбол // Қўлёзма. ЎзР. ФАШИ. № 5364/1. –1106 вар. (шу юришда Мунис ҳам қатнашганини кўрамиз).

5. Камалов С. Қарақалпақлардын халық болып қалиплесиўи ҳам онын мамлекетлигинин тарийхынан. — Нукус. 2001. – Б.27.

6. Рус олими В.В.Родловнинг таъкидлашича сарт сөзи санскрит (шадимги кинд) тилидаги сартқалақан сөзидан олинган бөслиб, савдогар, карвонбоши деган маънони билдиради.

7. МАТЁҚУБ МАТНИЁЗОВ, ЯРАШ ОЛЛАМОВ. “Хоразм давлатчилиги тарихи” (Тарих факультетининг талаба ва магистрантлари учун махсус курс бўйича ўқув-услугий қўлланма) Юридик фанлари доктори, профессор М.М.Файзиев таҳрири остида.-Урганч-2009,167-170-бетлар.

8. Иванов П.П. Архив хивинских ханов XIX в –Л.: 1940. – С.29.

9. Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. гвардейского Генерального штаба капитана Николая Муравьева, посланного сию страну для переговоров. – М., 1819-1820. Т. 1-2; – С.79; С.82; С.88; С.111; С.93